

## TA'LIMDA RAQAMLI INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

**Abdurakhmonova Rukhsora**

Angren Universiteti Xalqaro Hamkorlik va Ilmiy ishlar bo'yicha prorektor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10810874>

**Annotasiya.** Ushbu tezisdagi ta'limda iqtisodiyot, menejment va raqamli innovatsiyalarning zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlari xususida so'z boradi. Shuningdek, mazkur tezis mavzusi yuzasidan tegishli ilmiy va rasmiy adabiyotlardagi fikrlar umumlashtirilib, mavjud muammo yuzasidan taklif hamda tavsiyalar keltiriladi.


**Kalit so'zlar:** Ta'lim, zamonaviy yondashuvlar, innovatsiyalar, iqtisodiyot, menejment.

**Abstract.** This thesis talks about modern trends and approaches of economy, management and digital innovation in education. Also, the opinions of the relevant scientific and official literature on the topic of this thesis are summarized, suggestions and recommendations are given on the existing problem.

**Keywords:** Education, modern approaches, innovation, economy, management.

Zamonaviy ta'lim tizmi bugungi kunda o'zgarayotgan va rivojlanayotgan bir pallada mazkur tizimda an'anaviy o'qitish usullari o'rniga texnologiyalardan keng foydalaniladi. Kompyuterlar, internet, interaktiv darsliklar, onlayn ta'lim resurslari va boshqalar talaba va o'qituvchilarni o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Bu usul o'quvchilarning izlanuvchanlik darajasini oshiradi va ta'limning yanada samarali bo'lishiga imkon beradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini yangilash va takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar olib borilayotgan ekan, bunday islohotlar zamirida rivojlanayotgan ta'limning oldiga ham muhim vazifalarni yuklash tabiiy albatda. Bu borada pedagog olim M.M.Xolmuxammedov o'zining “**Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish**” mavzusidagi maqolasida: “Tizim o'z oldiga hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy yuksalishga munosib hissa qo'sha oladigan o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash, yoshlarni malakali mehnat orqali o'z hayot farovonligini ta'minlashga o'rgatish, o'z mehnat faoliyatiga innovatsion va kerativ yondashish, yaratuvchanlik, intellektual, ma'naviy potensialni rivojlantirish kabi vazifalarni qo'yadi”[1; B,3-4],-deya ta'kidlaydi. J.Oripovning “**Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarb jihatlari va ahamiyati**” mavzusidagi maqolasida “Raqamli texnologiyalar ta'limning zamonaviy yo'nalishlarga o'zgartirish kiritadi, talabalar va o'qituvchilar orasidagi aloqalarni yanada kuchaytiradi va talabalarning o'zi yoqtirgan holda ta'lim olishlarini ta'minlaydi. Xususan, raqamli texnologiyalardan ta'limda foydalanish malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi” deya mulohaza bildiradi[2; B,35]. Pedagog olimlardan K.R.Babadjanov, A.S.Raximov “**Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash**” maqolasida “Raqamli innovatsiyalar, talabalarning o'rganish jarayonini interaktiv holatga o'tkazadi. O'quvchilar, internetdagi saytlardan ma'lumotlarni topish, umumiy bilimlarini oshirish, ijodiy mashqlarni bajargan holda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa, ularning dars jarayonini tushunish darajasini yanada oshiradi” deya ta'kidlaydi [3;B, 6-7]. Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra ta'limda raqamli innovatsiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, mazkur texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llanilishi sohalar kesimida moslashtrish tendensiyasi asosida amalga oshirish lozim. Chunki, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari kadrlar salohiyatini oshirishda an'anaviy usullardan voz kechib ulgurmagani. Buning sababi **dastlab**, muassasalarning moddiy ahvoli bilan bog'liq bo'lsa **ikkinchi** tomondan kasbiy kopitentlikni oshirishda aniq

innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha yo'l xaritasi shakllantrilmaganida. Malakali kadrlar tayyorlashda raqamli innovatsiyalarni joriy etish aniq mexanizatsiyalashtirilgan modelga asoslanishi shart biz quyidagi keltirilgan mexanizm loyihasida umumiy ko'rinishni aks ettirishga harakat qilamiz. Bizningcha ta'limda raqamli innovatsiyalarni qo'llash mexanizmini 3 ta kategoriyaga ajratish mumkin[Muallif tomonidan ishlab chiqildi]:



Dastlab kategoriyalarning umumiy funksional tomonlari bilan tanishib chiqamiz:

1. **Umumiy kategoriya**- mazkur kategoriya ma'lum bir soh va unda yo'naltirilgan talabning raqamli innovatsiyalarni qabul qilish darajasi o'rganiladi hamda fundamental bilimlarni shakllantirish bosqichi.

2. **Fuksiyonal raqamli kategoriya**- ushbu jarayonda raqamli innovatsiyalarni bosqichma-bosqich qo'llaniladi.

3. **Layoqat darajalovchi kategoriya**- talabning tanlagan sohasi yuzasidan raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish darajasi baholanadi. Shuningdek, ushbu bosqichda uning ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini olib borish bilimlari baholanadi.

Xulosa qilib aytganda raqamli innovatsiyalarni ta'limda qo'llashda talabning dastlabki qabul qilish layoqatini baholash lozim. Shu orqali tashkil qilinyotgan dars jarayonlarida samaradorlikka erishish mumkin. Bu borada birinchi navbatda raqamli innovatsiyalar borasida o'qituvchilarning mediasavodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## REFERENCES

1. M.M.Xolmuxammedov. "Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish". Uzlüksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal. 2021. 6-son. 3-4-betlar.
2. J.Oripovning "Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarb jihatlari va ahamiyati" <https://doi.org/10.5281/zenodo.7150010>
3. Babadjanov K.R., RaximovA.S.Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-tizimida-raqamli-texnologiyalarni-qo-llash-yo-nalishlari>